

Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-avgust oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-avgust oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 10 715,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	10 715,0	109,4
G'uzor tumani	471,7	60,3
Dehqonobod tumani	104,4	94,4
Qamashi tumani	189,2	122,2
Qarshi tumani	600,3	113,9
Koson tumani	510,0	101,9
Kitob tumani	307,2	107,6
Mirishkor tumani	93,7	129,0
Muborak tumani	490,9	75,6
Nishon tumani	726,7	241,3
Kasbi tumani	129,6	102,1
Ko'kdala tumani	78,8	99,0
Chiroqchi tumani	458,2	125,5
Shahrisabz tumani	330,5	104,6
Yakkabog' tumani	281,4	104,5
Qarshi sh.	2 993,5	118,2
Shahrisabz sh.	377,1	124,8
Taqsimlanmaydigan hajm	2 571,9	106,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025- yilning yanvar-avgust oylarida Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,9 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 117,7 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,9 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 61,7 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,1 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 151,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 600,8	408,9	829,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	109,9	124,4	131,2
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3 584,6	870,5	576,0
<i>o'sish sur'ati, %</i>	109,4	49,9	197,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2844,2	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	101,1	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-avgust oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 839,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 117,7% ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,2% ga ko'payib, 26,5% ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,9% i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,9% ni tashkil etgan holda 5 031,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 26,5% ni yoki 2 844,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,5% ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Yillar

Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	2 839,6	5 031,2	2 839,6	80,7	109,9	101,5
G'uzor tumani	57,2	311,2	103,3	7,6	105,2	94,7
Dehqonobod tumani	4,6	32,2	67,6	159,5	93,7	92,1
Qamashi tumani	6,1	83,6	99,5	143,5	141,5	108,4
Qarshi tumani	180,2	331,8	88,2	93,4	106,8	160,5
Koson tumani	57,3	322,8	129,8	38,4	114,7	110,2
Kitob tumani	64,9	126,7	115,6	273,2	99,8	84,9
Mirishkor tumani	11,1	45,9	36,6	90,0	131,6	122,3
Muborak tumani	305,9	149,3	35,7	32,9	119,6	124,3
Nishon tumani	593,1	101,5	32,1	150,9	156,3	96,5
Kasbi tumani	16,1	71,9	41,6	111,9	116,5	73,7
Ko'kdala tumani	1,4	66,6	10,8	-	97,4	96,2
Chiroqchi tumani	190,5	124,6	143,1	156,2	108,1	111,5
Shahrisabz tumani	29,0	246,8	54,8	148,0	101,6	98,4
Yakkabog' tumani	8,6	184,3	88,4	66,6	109,0	99,0
Qarshi sh.	1002,1	1871,2	120,2	150,3	108,5	79,4
Shahrisabz sh.	92,7	195,1	89,3	155,7	111,6	131,8
Taqsimlanmaydigan hajm	218,6	765,6	1 587,7	134,7	111,0	101,3

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Kitob tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 2,7m.), Dehqonobod tumanida (159,5%) va Shahrisabz shaharida (155,7%) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Nishon tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 156,3%), Qamashi tumani (141,5%) va Mirishkor tumanida (131,6%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

N. Berdikulov
75 221-32-47 (7020)

Manzil:

180100, Qarshi shahri.,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
